TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI 18
O‘rinov Akmaljon Ahmadjonovich
Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o‘g‘li
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI 22
Ro‘zmatova Farahongiz Bekmurotovna
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOIY TENGLIKKA TA’SIRI 27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) 32
Xasanova Mavjuda Ma’mirjonovna
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI 41
Barotov Umidjon Mahmud o‘g‘li
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI 48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich
Abdullayeva Gulsanam
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK 53
Kambarova Liliya Ruslanovna
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ 56
Алибекова Саодат Лапасовна
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 61
Usmonova Dilfuza Ilxomovna
O‘ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI 66
Junaydullayev Mels Asliddin o‘g‘li
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH 72
Xaydarova Kamola Axinjanovna
Berdiqulov Suhrob Berdiqul o‘g‘li
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO‘SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna
Xolmurodova Sevara Asqarovna
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 84
Guzal Navruzova
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI 88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna
MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO’RSATGICHLARI HOLATI 94
Uralov Eliboy Omonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO‘LLASH 100
Dilfuza Xamzayeva
Xurshid Xurramov

TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH 106
Otaxonova Roza Boboxon qizi

APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES 111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna

INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI 118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich

XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 122
Yahyoxonov Niyozxo‘ja Bahroil o‘g‘li

ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI 128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI 133
Xatamova Gavhar Kiyamovna

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH 138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 144
Ismailov Erkin Faxretdinovich

THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT 148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova

AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI 154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich

RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI 159
Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li

O‘ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH 164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna

RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI 169
Azizova Dilafruz Habibullayevna

INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR 172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG‘INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 176
Yusupov Ulug‘bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO‘LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 188
Tolipova Malika Saloxidinovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO‘JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) 192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 198
M.I. Murodova

“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI 203
Muxtorov Ilhom Avazjon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI 211
Qo‘ziboyev Behzod Hamidovich

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 221
Aipova Iroda Ikramovna

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI 226
Musayeva Shoira Azimovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА 239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович

REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O‘RNINI OSHIRISH 246
Sevara Hakimova Rustam qizi

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI 251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna

YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O‘ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO‘NALISHLARI 255
Turanov Suhrob Bahodir o‘g‘li

OLIY TA’LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR 262
Nazarov G‘ulom Akmal o‘g‘li

“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA’LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O‘QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI 269
Raxshona Nabibullayeva

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 275
Baxadirov Alisher Komilovich

TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 281
Nomozov Umid Iskandarovich

GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING 285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG‘URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI 293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna

XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODELI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG‘OR TAJRIBALARI 297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o‘g‘li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi

XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI 302
Eshonqulov Akmal Qudratovich

O‘ZBEKISTON KICHIK VA O‘RTA KORXONALARI O‘RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO‘LLASHDAGI TO‘SIQLAR 306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH 316
Xamidova S.Ya.

KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 322
Ro‘zieva Gulchexra O‘sarovna

NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O‘TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI 328
Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna

O‘ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 333
Isomiddinova Xilola Xasan qizi

ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ 338
Муниса Турдибаева

O‘ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 350
Xamdamova Guljaxon Ablakulovna

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH 357
Malikova Ug‘iloy Abdurasul qizi

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA CO_2 EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG‘I (EKC) ASOSIDA TAHLIL 363
Choriyev Maxmayoqub

YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA “NAVOIYAZOT” AJ AMALIYOTI 368
Sayidova Shahlo Toshtemirovna

BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 373
Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH MODELI 381
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH MODELI

Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich
Andijon davlat universiteti
“Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti
ORCID: 0000-0002-4672-6347

Annotatsiya. Mazkur maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Klaster nazariyasi, global qiymat zanjiri va innovatsion rivojlanish omillari o‘rganilib, eksportni oshirishga ta’sir etuvchi asosiy determinantlar aniqlanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan imitatsion model orqali ishlab chiqarish, investitsiya va talab o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar asoslab berilib, samarali boshqaruv mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, klaster, eksport, eksport salohiyati, menejment, standart.

Abstract. This article analyzes the issue of increasing the export potential of cotton-textile clusters based on a systematic approach. Cluster theory, global value chains, and innovative development factors are studied, and the main determinants affecting export growth are identified. Also, through the developed simulation model, the interrelationships between production, investment, and demand are substantiated, and effective management mechanisms are proposed.

Key words: textile, cluster, export, export potential, management, standard.

Аннотация. В данной статье на основе системного подхода анализируется проблема повышения экспортного потенциала хлопчатобумажных текстильных кластеров. Изучаются теория кластеров, глобальные цепочки создания стоимости и факторы инновационного развития, а также определяются основные детерминанты роста экспорта. Кроме того, с помощью разработанной имитационной модели обосновываются взаимосвязи между производством, инвестициями и спросом, и предлагаются эффективные механизмы управления.

Ключевые слова: текстиль, кластер, экспорт, экспортный потенциал, управление, стандарт.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va xalqaro savdo aloqalarining kengayishi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, ayniqsa eksport salohiyatini oshirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonda sanoatning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega tarmoqlari, jumladan, paxta-to‘qimachilik sanoati alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida paxta xomashyosi tarixan strategik resurs hisoblangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ushbu resursni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport geografiyasini kengaytirish orqali yuqori daromad olishga yo‘naltirilgan klaster tizimi jadal rivojlanmoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan barcha ishlab chiqarish bosqichlarini yagona tizimga birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash, logistika xarajatlarini kamaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Natijada klasterlar nafaqat ichki bozorni to‘ldiradi, balki eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va milliy iqtisodiyotning valyuta tushumlarini ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, inson kapitali, investitsiya muhitining jozibadorligi hamda tashqi bozorlardagi talab va raqobat sharoitlariga bevosita bog‘liqdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish eksport muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Aksincha, global qiymat zanjirlarida yuqori bosqichlarga chiqish, ya’ni dizayn, brending va marketing faoliyatlarini rivojlantirish orqali qo‘shilgan qiymatni oshirish zarurati ortib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlarida eksport faoliyatini samarali boshqarish uchun tizimli yondashuv va ilmiy asoslangan modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan alohida omillarni tahlil qilish bilan cheklanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va dinamik

ta’sir mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli eksport salohiyatini kompleks baholash va prognozlash imkonini beruvchi imitatsion modelni ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda global qiymat zanjirlari (Global Value Chains – GVC), sanoat klasterlari va raqobatbardoshlik nazariyalari kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan uchta asosiy yondashuvga tayangan holda rivojlangan: klaster nazariyasi, global qiymat zanjiri konsepsiyasi hamda eksport raqobatbardoshligi va sanoat modernizatsiyasi nazariyalari.

Avvalo, klaster yondashuvi iqtisodiy rivojlanishning muhim mexanizmi sifatida M. Porter 1998-yilda tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u klasterlarni geografik jihatdan yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘langan kompaniyalar, yetkazib beruvchilar va institutlar majmui sifatida tavsiflaydi. Porterga ko‘ra, klasterlar ichida yuzaga keladigan raqobat va hamkorlik uyg‘unligi innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va eksport salohiyatini mustahkamlaydi. Ayniqsa, tekstil sanoatida klasterlashuv xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymatni oshirish va xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtiradi.

Shu bilan birga, klasterlarning samaradorligini tushuntirishda global qiymat zanjiri konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Gereffi 1999-yilda hamda Gereffi va Frederick 2010-yilda olib borgan tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, tekstil va kiyim-kechak sanoati “buyer-driven” (xaridor boshqaradigan) zanjir bo‘lib, unda asosiy qiymat dizayn, marketing va brending bosqichlarida shakllanadi. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun faqat xomashyo eksporti emas, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish orqali yuqori daromad olish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, paxta-to‘qimachilik klasterlarida vertikal integratsiyani kuchaytirish eksport salohiyatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Humphrey va Schmitz 2002-yilda ilgari surgan “upgrading” konsepsiyasi esa klasterlarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi orqali texnologik va funksional rivojlanishini izohlaydi. Mualliflar to‘rtta asosiy upgrading turini ajratadi: jarayonni takomillashtirish, mahsulotni yangilash, funksional o‘sish va zanjirlararo diversifikatsiya. Tekstil klasterlari uchun ayniqsa funksional upgrading, ya’ni ishlab chiqarishdan marketing va dizaynga o‘tish eksport daromadlarini sezilarli oshiradi.

Kaplinsky va Morris 2001-yilda ishlab chiqqan qiymat zanjiri tahlili metodologiyasi esa eksport salohiyatini baholashda muhim analitik vosita sifatida qaraladi. Unga ko‘ra, har bir bosqichda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatni aniqlash orqali klaster ichidagi samaradorlik va “tor bo‘g‘inlar”ni aniqlash mumkin. Bu metodologiya paxta-to‘qimachilik klasterlarida resurslardan samarali foydalanish va eksportni diversifikatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda tekstil sanoatida eksport salohiyatini oshirishda barqaror rivojlanish omillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ningsih va hammualliflar 2026-yilda olib borgan tadqiqotida tekstil sanoatining raqobatbardoshligi ekologik barqarorlik, resurs tejash va yashil texnologiyalar bilan bevosita bog‘liqligi asoslab berilgan. Mualliflarning fikricha, xalqaro bozorlarda talab tobora ekologik standartlarga mos mahsulotlarga qaratilmoqda, bu esa ishlab chiqaruvchilarni “green textile” konsepsiyasini joriy etishga majbur qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Kamalovich 2025-yilda olib borgan tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirishda yashil texnologiyalar va raqamli transformatsiya muhim strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Muallif eksportni oshirish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv zamonaviy klaster siyosatining innovatsion yo‘nalishini aks ettiradi.

Ye 2025-yilda Xitoyning Yangtze River Delta hududidagi tekstil klasterlari misolida o‘tkazgan tadqiqotda esa klasterlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan hududiy infratuzilma, inson kapitali va davlat siyosatiga bog‘liqligini aniqlagan. Ushbu natijalar O‘zbekiston sharoitida ham muhim bo‘lib, paxta-to‘qimachilik klasterlarining rivojlanishi uchun institutsional muhitni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tokatli 2013-yilda tekstil sanoatidagi upgrading jarayonlarini tanqidiy tahlil qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pincha past qo‘shilgan qiymat bosqichlarida qolib ketishini ta’kidlaydi. Bu holat eksport salohiyatining to‘liq amalga oshmasligiga olib keladi. Shuning uchun ham klaster siyosatida faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki innovatsion va kreativ faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u ishlab chiqarish, texnologiya, investitsiya, institutsional muhit va global bozor omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda tizimli-dinamik (system dynamics) yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv eksport salohiyatini statik emas, balki vaqt davomida o‘zgarib boruvchi murakkab tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kontent-tahlil usuli orqali milliy va xalqaro strategik hujjatlar, sohaviy dasturlar, ilmiy maqolalar hamda eksport siyosatiga oid normativ-huquqiy manbalar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali eksportni rag‘batlantiruvchi institutsional omillar, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va global bozor tendensiyalari aniqlandi. Natijada iqtisodiy va sifat jihatdan tahlilni uyg‘unlashtirish orqali ilmiy xulosalarning kompleksligi va ishonchliligi ta’minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2020-yil 22-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan bo‘lib, u sohada faoliyat yuritayotgan klasterlarni rivojlantirishga muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkilotchilarining “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasini tashkil etish hamda uyushma tuzilmasida tizimli muammolarni bartaraf etish, marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashni ta’minlovchi maslahat organi — Paxta-to‘qimachilik klasterlari kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullandi.

Kengashning tashkil etilishi klasterlar manfaatlarini davlat miqyosida himoya qilish darajasiga chiqardi. Klasterlar uch tomonlama kelishuv doirasida Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlarining qarorlari asosida ish boshlaydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tugatilib, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan arizachilar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi (1-rasm).



1-rasm. Paxta-to‘qimachilik klasterlarning eksport salohiyatini oshirish immitasion modeli[1]

1 Manba: muallif ishlanmasi

Mazkur rasmda tasvirlangan tizim paxta-to‘qimachilik klasterining eksport salohiyatini shakllantiruvchi tizimli-dinamik (causal loop) modeli bo‘lib, unda ishlab chiqarish, mehnat bozori, investitsiya va tashqi savdo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar kompleks tarzda aks ettirilgan. Modelning markazida ishlab chiqarish quvvati (capacity of production) turib, u bevosita ishlab chiqarish hajmini belgilaydi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi esa o‘z navbatida zaxiralar (inventory) va kechikkan buyurtmalar (backlog) dinamikasiga ta’sir qiladi. Agar ishlab chiqarish talabdan ortib ketsa, zaxiralar ortadi, aks holda backlog shakllanadi, bu esa tizimda muvozanat mexanizmlarini ishga tushiradi.

Modelda muhim o‘rin tutuvchi elementlardan biri bu talab (demand) bo‘lib, u eksport va import orqali shakllanadi. Talab oshganda ishlab chiqarish rag‘batlantiriladi, natijada taklif (supply) kengayadi. Taklifning ortishi esa eksport hajmini ko‘paytiradi, biroq bu jarayon har doim ham chiziqli emas. Chunki modelda ko‘rsatilganidek, eksportning ortishi ayrim hollarda ichki ta’minotni kamaytirishi mumkin, bu esa tizimda muvozanatlashtiruvchi (balancing) sikllarni yuzaga keltiradi.

Modelning yana bir muhim jihati bu investitsiya va daromad o‘rtasidagi ijobiy teskari aloqa (reinforcing loop) hisoblanadi. Ya’ni eksportdan tushgan daromad (income) oshishi bilan xorijiy investitsiyalar (FDI) jalb etilishi kuchayadi. FDI esa ish haqi (wages) va ishchilar soni (number of workers) oshishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarish quvvatining kengayishiga xizmat qiladi. Natijada tizimda o‘sishni rag‘batlantiruvchi kuchli multiplikativ effekt yuzaga keladi.

Mazkur model paxta-to‘qimachilik klasterlarida eksport salohiyatini oshirish jarayoni ko‘p omilli va o‘zaro bog‘langan dinamik tizim ekanligini ko‘rsatadi. Unda ijobiy (reinforcing) va salbiy (balancing) sikllar birgalikda faoliyat yuritadi. Bu esa shuni anglatadiki, eksportni oshirish faqat ishlab chiqarishni kengaytirish bilangina emas, balki investitsiya, mehnat bozori, logistika va tashqi savdo siyosatini kompleks tarzda muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv ilmiy jihatdan klaster rivojlanishini prognozlash, “tor bo‘g‘inlar”ni aniqlash va optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilindi va mavjud adabiyotlar sintezi shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayon ko‘p omilli, o‘zaro bog‘langan va dinamik xarakterga ega tizim hisoblanadi. Klaster nazariyasi, global qiymat zanjiri konsepsiyasi hamda sanoatni modernizatsiya qilishga oid ilmiy yondashuvlar eksport salohiyatini oshirishda asosiy nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, klaster ichida vertikal integratsiyani chuqurlashtirish, ya’ni xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni yagona tizimga birlashtirish yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va eksport daromadlarini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eksport salohiyati nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki texnologik daraja, inson kapitali sifati, investitsion faollik va institutsional muhitga ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda xalqaro standartlar asosida sertifikatlash tizimini rivojlantirish klasterlarning global bozordagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik va “yashil ishlab chiqarish” tamoyillariga o‘tish zamonaviy eksport strategiyalarining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda.

O‘rganilgan ilmiy manbalar va tahlillar asosida ishlab chiqilgan imitatsion model eksport salohiyatini statik emas, balki vaqt davomida shakllanib boruvchi dinamik tizim sifatida baholash imkonini beradi. Modelda ishlab chiqarish, talab, investitsiya va daromad o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar hamda ijobiy va muvozanatlashtiruvchi teskari aloqalar mavjudligi aniqlanib, eksportni oshirishda “tor bo‘g‘inlar”ni aniqlash va ularni bartaraf etish zarurligi asoslab berildi.

Umuman olganda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etilib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, global qiymat zanjirlarida yuqori bosqichlarga chiqish va samarali davlat siyosatini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy qarorlar qabul qilish, strategik rejalashtirish va klasterlarni barqaror rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kamalovich, S. M. (2025). Strategic development of export potential for cotton-textile clusters through green technologies and sustainable practices. E3S Web of Conferences, 648, 03010. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202564803010
2. Ningsih, E. A., & others. (2026). Sustainability of industrial competitiveness in the textile and apparel industry. Sustainability, 18(7), 3400. https://doi.org/10.3390/su18073400
3. Ye, J. (2025). The characteristics and cultivation path of textile and apparel industry clusters in the Yangtze River Delta. Frontiers in Economics and Management, 6(4), 119–132. https://doi.org/10.6981/FEM.202504_6(4).0014
4. Marlenovna, M. D. (2019). Export opportunities and competitiveness of textile products. Indonesian Journal of Innovation Studies, 8. https://doi.org/10.21070/ijins.v8i0.246

5. Gereffi, G., & Frederick, S. (2010). The global apparel value chain, trade and the crisis. World Bank Policy Research Working Paper. https://doi.org/10.1596/1813-9450-5281
6. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90. https://doi.org/10.1007/978-1-349-14865-3
7. Humphrey, J., & Schmitz, H. (2002). How does insertion in global value chains affect upgrading in industrial clusters? Regional Studies, 36(9), 1017–1027. https://doi.org/10.1080/0034340022000022198
8. Gereffi, G. (1999). International trade and industrial upgrading in the apparel commodity chain. Journal of International Economics, 48(1), 37–70. https://doi.org/10.1016/S0022-1996(98)00075-0
9. Kaplinsky, R., & Morris, M. (2001). A handbook for value chain research. Institute of Development Studies. https://doi.org/10.3362/9781780441149
10. Tokatli, N. (2013). Toward a better understanding of the apparel industry: A critique of the upgrading literature. Journal of Economic Geography, 13(6), 993–1011. https://doi.org/10.1093/jeg/lbs040.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 5

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz